

OGAHIY G‘AZALLARIGA PSIXOLOGIK TAHLIL

(“Band” radifli g‘azali misolida)

O‘rozaliyeva O‘lmasoy Kubay qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

1-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Ogahiy qalamiga mansub “Band” radifli g‘azali psixologik tahlil qilingan. Tahlil davomida o‘quvchiga uch tomonlama manfaatli tarixiy, badiiy va psixologik bilimlar berilishi nazarda tutilgan. Maqolada g‘azalning mazmuni, undagi psixologik jarayonlarning namoyon bo‘lish ko‘rinishlari tahlil qilingan. “Badiiy psixologizm” tushunchasiga alohida to‘xtalinib, bu atama yuzasidan atroflicha ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, A.B. Yesin, badiiy psixologizm, tafakkur, ruhiyat, obraz, psixologik tahlil.

Har qanday ijodiy ish tafakkur mahsuli hisoblanadi. Tafakkur insonning fikrlash jarayonidir. Psixologiyada tafakkur bilish jarayoni sifatida insondagi intellekt darajasini belgilashga yordam beradi. Intelekti yuqori insonlarga ijdokorlik, kreativ fikrlash hamda muammoli vaziyatlarda tez va samarali qaror qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Ijodiy ishdagi psixologik ruhiyat, ijdokor kayfiyati va qanday tuyg‘ular tarannum etilgani badiiy psixologizm tushunchasi orqali yoritiladi. Psixologizm atamasi psixologik tahlil, psixologik obraz A.B. Yesin ta’biri bilan aytganda, asar personajining hayot olami, fikrlari mulohazalarining o‘ziga xos badiiy vositalardan foydalangan holda juda to‘liq, batafsil va chuqur ifodalab berilishidir.

Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy ijodi insoniyatga xos his-tuyg‘u va kechinmalarni yaqqol ifoda etgani bilan ahamiyatga molik. Ogahiy ijodini psixologik tahlil etish o‘quvchiga ham badiiy, ham psixologik hamda ijtimoiy-etik bilimlarni tushuntirishda qo‘l keladi. Quyida Ogahiy qalamiga mansub “Band” radifli g‘azalini psixologik jihatdan tahlil etamiz. Ushbu g‘azal ramal bahrining musammani mahzuf shaklida bitilgan. Vazn formulasi: fo‘ilotun fo‘ilotun fo‘ilotun fo‘ilun. G‘azal 7 banddan iborat. Ogahiyning ushbu g‘azali “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) devonida keltirilgan 109-g‘azal. Ushbu g‘azal inson ruhiy kechinmalarining eng murakkab holatlari — ishqiy ehtiros, ichki ziddiyat, ixtiyor va ixtiyorsizlik, ruhiy qaramlik hamda o‘zini tiyishga bo‘lgan ongli urinishni badiiy ifoda etadi. Shoir muhabbatni nafaqat tuyg‘u, balki shaxs psixikasini egallab oluvchi kuch sifatida tasvirlaydi.

Parda birla qilmog‘il xurshidi ruxsoringni band,

Gar desangkim, aylayin bu zarrazi zoringni band.

Bu baytda oshiq yor jamolini quyoshga qiyoslaydi. Yor husni shunchalik kuchliki, u oshiq ongini to'liq egallab olgan. Psixologik jihatdan bu holat: diqqatning bir nuqtaga mutlaq jamlanishi, dominant nazariyasiga mos keladi va bu kuchli emotsional qo'zg'alish holatini bildiradi. Shoir "parda bilan berkit" deya iltimos qiladi. Bu — oshiqning o'zini ruhiy jihatdan himoyalashga urinishidir. Ya'ni u: kuchli emotsional stimullardan qochmoqchi, ongni muvozanatda saqlashga harakat qiladi. Bu yerda iroda va ehtiros o'rtasidagi dastlabki ichki kurash namoyon bo'ladi.

Istabon ko'rmak jamoling tun-kun o'lmish beqaror,

Ey pari, Majnun ko'ngulga qilma diydoringni band.

Oshiq "tun-kun beqaror". Bu — psixologik bezovtalik, ya'ni ichki tinchlikning yo'qolgan holati. U jamolni ko'rishga majburiy ehtiyoj sezadi. Majnun timsoli orqali: muhabbatning obsessiv (majburiy) xarakteri ochiladi, oshiq fikri va istagi ustidan nazoratni yo'qotlayotgani ayon bo'ladi. Shoir yor diydorini "band qilma" deydi — bu: oshiqning o'z holatini anglab yetgani, lekin hali uni to'liq boshqara olmasligini ko'rsatadi. Bu bayt orqali oshiq ruhiyatidagi qaramlikni ifodalaydi.

So'z eshitib lablaringdin toza-toza jon topay,

Qilma, jono, nukta-din la'li shakaboringni band.

Bu yerda yorning so'zi ruhiy oziqa sifatida talqin qilinadi. Oddiy nutq oshiqda kuchli hayajon uyg'otadi. Psixologik jihatdan: bu verbal stimullarning haddan tashqari ta'siri, emotsional sezgirlikning yuqori darajasi hisoblanadi. Oshiq yana "band qilma" deydi — ya'ni: ruhiy qo'zg'alishni kamaytirishni istaydi, lekin o'zi ham bunga to'liq qodir emas ekanini tan oladi. Bu holat emotsional qaramlikning chuqurlashgan bosqichidir.

Ko'zlaringkim, rahm qilmay dam-badam qonim ichar,

O'yla bir tadbir ila bu ikki xunxoringni band.

Bu baytda ruhiy og'riq jismoniy azob sifatida ifodalanadi. "Qonim ichar" iborasi:

ruhiy iztirobning tanaga ko'chishini bildiradi. Bu holat psixologiyada: psixosomatik reaksiyalar deb ataladi, ya'ni ruhiy zo'riqish jismoniy hislar bilan namoyon bo'ladi.

Oshiq yordan "tadbir top" deya so'raydi. Bu: tashqi yordamga ehtiyoj, ruhiy holatdan chiqish uchun tayanch izlashni ko'rsatadi.

Ishq ko'yiga chu kirding emdi qilma, ey ko'ngul,

O'zungga bu ko'y aro nomus ila oringni band.

Bu baytda oshiq o'z qalbiga murojaat qiladi. Bu — o'zini anglash holati. Bu yerda:

aql va axloqiy me'yorlar ishga tushadi, "nomus" va "or" ijtimoiy-axloqiy

nazorat ramzi sifatida keladi. Psixologik jihatdan bu: o'zini boshqarishga urinish, ehtirosni ong bilan cheklashga intilishdir.

Yo'q vafo bu bog' aro bir gulda, qilg'il noladin,
Bulbuli shaydo, uning shavqida minqoringni band.

Bu bayt oshiqning umidsizlik holatini ifodalaydi. U muhabbatni bevafo deb baholaydi. Ruhiy holat: hafsalasi pir bo'lish, emotsional tushkunlik, hayotiy ideallarning sinishi bilan xarakterlanadi. Bulbul — oshiqning o'zi, nola esa — ichki faryod sifatida talqin etiladi. Bu holat depressiv kayfiyatga yaqinlashuvni bildiradi.

Maqta'da yakuniy hissiy holat ifoda topadi:

Ogahiy, dilso'z nazmingni eshitsu ahli ishq,
Bo'ynig'a ta'vizdek aylarlar ash'oringni band.

So'nggi baytda shoir ruhiy iztirobni ijod orqali yengadi. Bu holat psixologiyada:

sublimatsiya deyiladi, ya'ni ichki og'riqni san'atga aylantirish. Ogahiy o'z azobini she'rga solib ruhiy yengillikka erishadi, boshqalarga ham tasalli beradi.

Ogahiyning mazkur g'azali inson ruhiyatida muhabbat ta'sirida yuzaga keladigan murakkab psixologik jarayonlarni chuqur va izchil tarzda yoritadi. Asarda ishq shunchaki estetik tuyg'u sifatida emas, balki shaxs ongini egallab oluvchi, ruhiy muvozanatni buzuvchi va ichki ziddiyatlarni yuzaga keltiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Oshiq qalbida yuzaga kelgan bu holat diqqatning bir nuqtaga mutlaq jamlanishi, emotsional qaramlik, bezovtalik va ichki iztirob orqali namoyon bo'ladi. G'azalda muhabbat oshiq ruhiyatida avvalo kuchli ehtiros sifatida namoyon bo'lib, keyinchalik u ixtiyorni cheklovchi holatga aylanadi. Oshiq o'z kechinmalarini anglay boshlaydi, biroq ularni to'liq boshqara olmaydi. Bu jarayon psixologik jihatdan ehtiros va ong o'rtasidagi ichki konflikt bilan xarakterlanadi. Yor jamoli, so'zi va nigohi oshiq ruhiyatida haddan tashqari kuchli emotsional ta'sir uyg'otib, uni ruhiy beqarorlik holatiga olib keladi. Natijada ruhiy zo'riqish psixosomatik belgilar orqali ifodalanadi, ya'ni ruhiy azob jismoniy og'riq sifatida seziladi. Asarda oshiqning o'z qalbiga murojaat qilishi shaxsning o'z holatini anglashga intilayotganini ko'rsatadi. Bu holat ichki nazorat mexanizmlarining ishga tushganidan dalolat beradi. Nomus va or tushunchalari orqali oshiq ehtirosni axloqiy va ijtimoiy me'yorlar asosida boshqarishga urinadi. Biroq bu urinishlar doim ham muvaffaqiyatli bo'lavermaydi, natijada umidsizlik va ruhiy tushkunlik holatlari yuzaga keladi. G'azalning muhim psixologik jihati shundaki, unda ishq azobi yakuniy halokat bilan emas, balki ijod orqali yengiladi. Shoir ichki iztirobni badiiy so'zga aylantirib, ruhiy yengillikka erishadi. Bu holat psixologiyada sublimatsiya, ya'ni salbiy emotsional energiyaning ijodiy faoliyat orqali ijobiy shaklga

yoʻnaltirilishi sifatida izohlanadi. Demak, ishq oshiqni azobga solishi bilan birga, uni ruhiy yetuklik sari yetaklovchi kuchga ham aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ogahiy. Taʼviz ul-oshiqin. — Toshkent: Fan, 1965.
2. Ibrohim Haqqulov. Ogahiy ijodiy merosi. — Toshkent: Sharq, 2003.
3. L. Ya. Ginzburg. O psixologicheskoy proze. O literaturnom geroe. — SPb.: Azbuka, 2016.
4. A. N. Nikolyukin (tahr.) Literaturnaya ensiklopediya terminov i ponyatiy. — Moskva, 2001.
5. S. L. Rubinshteyn. Osnovy obshchey psixologii. — Moskva: Nauka, 2011.
6. H. Umurov. Badiiy psixologizm va hozirgi oʻzbek romanchiligi. — Toshkent: Fan, 1983.